O‘ZBEKISTON QISHLOQLARIDA TIBBIY MUASSASA FAOLIYATLARINING SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI (1924-1945)

Boysariyeva Sohiba Abduholiqovna, Guliston pedagogika instituti tayanch doktaranti
e-mail: sboysariyva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1924–1945-yillar oralig‘ida O‘zbekiston qishloqlarida tibbiy muassasalarning tashkil etilishi, ularning faoliyat yo‘nalishlari va aholining salomatligini ta’minlashdagi pedagogik ahamiyati va o‘rni tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Arxiv hujjatlari, davriy matbuot hamda statistik ma’lumotlarga tayangan holda, qishloqlarda tibbiyot tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. qishloq tibbiyoti, feldsherlik punktlari, sanitariya, tibbiy muassasa, epidemiyaga qarshi kurash;

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В СЕЛАХ УЗБЕКИСТАНА (1924-1945)

Аннотация. В статье на основе исторических источников рассматривается создание медицинских учреждений в сельской местности Узбекистана в период с 1924 по 1945 год, направления их деятельности, педагогическое значение и роль в обеспечении здоровья населения. На основе архивных документов, периодических изданий и статистических данных анализируются этапы становления и развития медицинской системы в сельской местности.

Ключевые слова: сельская медицина, фельдшерско-акушерские пункты, санитария, лечебное учреждение, борьба с эпидемиями;

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF MEDICAL INSTITUTION ACTIVITIES IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN VILLAGES OF UZBEKISTAN (1924-1945)

Abstract. This article examines the establishment of medical institutions in rural Uzbekistan between 1924 and 1945, their areas of activity, and their pedagogical significance and role in ensuring the health of the population based on historical sources. Based on archival documents, periodicals, and statistical data, the stages of formation and development of the medical system in rural areas are analyzed.

Keywords: rural medicine, first aid stations, sanitation, medical institution, fight against epidemics;

Kirish. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida qishloq aholisi orasida tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasi nihoyatda past edi. 1920-yillarda Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi tomonidan yangi siyosat yuritilib, qishloqlarda tibbiy muassasalar tashkil etish boshlangan. XX asrning birinchi yarmida Respublikamiz hududlarida

sog‘liqni saqlash tizimida tubdan o‘zgarishlarga yuz tutdi. Ammo aholining asosiy qismi qishloqlarda yashagan bo‘lsa-da, tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishi va sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, ayniqsa 1920-yillarning boshlarida, nihoyatda sust edi. Sovet hukumati o‘zining ijtimoiy siyosatida sog‘liqni saqlash sohasini ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgiladi. Bunda ayniqsa qishloq joylaridagi aholining tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etdi.. Qishloq joylarida feldsherlik punktlari, kasalxonalar va dispanserlar barpo etilib,ularning aholiga xizmat faoliyati rivojlanib bordi[1.4-7-b]. Ushbu maqolada aynan qishloq tibbiy muassasalari faoliyatining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi **pedagogik ahamiyati** tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Bu faoliyat, o‘z mohiyatiga ko‘ra, nafaqat tibbiy yordam ko‘rsatish, balki sog‘liqni saqlash bo‘yicha aholiga ma’lumot berish, gigiyena madaniyatini singdirish, bolalar va ayollar salomatligini asrash, profilaktika va axborot-targ‘ibot ishlari orqali sog‘lom turmush madaniyatini tarbiyalashni o‘z ichiga olgan.

Mazkur maqolada 1924–1945-yillar oralig‘ida O‘zbekiston qishloqlarida tibbiy muassasalarning faoliyati, ularning tashkil topishi, aholiga ko‘rsatilgan xizmatlari, kadrlar masalasi va mavjud muammolar tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Bu muassasalar sog‘liqni saqlash bilan bir qatorda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha ommaviy pedagogik ishlar olib bordi. Masalan, gigiyena saboqlari, sanitar-axborot stendlari, og‘zaki targ‘ibotlar (lektsiyalar, suhbatlar) orqali aholining salomatlik madaniyati oshirildi.

2. Tibbiy muassasalarning pedagogik funksiyalari

O‘sha davrda tibbiy muassasalar quyidagi pedagogik vazifalarni bajargan:

- Aholi, ayniqsa ayollar va bolalar o‘rtasida gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish, toza ichimlik suvidan foydalanish, yuqumli kasalliklarning oldini olish kabi sog‘lom turmush odatlarini singdirish.
- O‘quvchilar uchun maktablarda sog‘liq darslarini o‘tkazish, bolalar sanitariya burchaklarini tashkil etish.
- Madaniy-marifiy tadbirlar orqali sanitariya-gigiyenik savodxonlikni oshirish: kinoko‘rsatmalar, sahna chiqishlari, sanitariya gazetalari chiqarish.
- Homilador ayollar va emizikli onalarga sog‘lom turmush odatlari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.

Bu faoliyatlarning barchasi tibbiyot xodimlarining pedagogik salohiyati va sog‘liq madaniyatini tarbiyalash borasidagi roli ortganini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda tarixiy-tahliliy yondashuv asosida arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va statistik materiallar [2. 112-b]asosiy manba sifatida tanlandi.

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi hujjatlari;
- Sog‘liqni saqlash xalq komissarligining yillik hisobotlari;
- 1920–1940-yillardagi gazetalar (masalan: Красный Узбекистан, Здоровье Узбекистана);
- Statistik byulletenlar va zamonaviy tarixiy tadqiqotlar.

Tadqiqot hududi sifatida O‘zbekiston SSR tarkibidagi viloyatlar va tumanlarning qishloq joylari ko‘rib chiqildi. Vaqt oralig‘i esa 1924-yil (O‘zbekiston SSR tashkil topgan davr) va 1945-yil (Ikkinchi jahon urushi yakuni) oraliqlarini qamrab oladi.

- **Natijalar.** 1924–1928-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSRda bir nechta qishloq kasalxonalari va feldsherlik punktlari tashkil etila boshlandi. Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi qishloq joylarida sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishni bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yildi [1.4-7-b].Shuningdek, sanitar madaniyat va epidemiyalarga qarshi kurash bo‘yicha qishloqlarda ichimlik suvi sifatsizligi va toza ichimlik suvi masalasida gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi sababli bezgak,

ichburug‘, qizamiq kabi yuqumli kasalliklar keng tarqalganligi va ularga qarshi ko‘riladigan chora-tadbirlari [2.112-b] amalga oshirildi. Sanitariya-targ‘ibot ishlari orqali aholining tibbiy madaniyati asta-sekin oshirila boshlandi.

1924–1930-yillarda O‘zbekiston SSRda 100 dan ortiq tibbiy punktlar tashkil etildi. Aholi soniga nisbatan tibbiy xizmat ko‘rsatish past bo‘lgan bo‘lsa-da, bu muassasalar sanitariya-targ‘ibot ishlarida muhim o‘rin egalladi [4,10-b]. 1933-yilga kelib, Toshkent viloyatining qishloq hududlarida 27 ta feldsherlik punktlari faoliyat yuritgan[5,5-7-b]. Ikkinchi jahon urushi davrida tibbiy muassasalar soni qisqargan bo‘lsa-da, evakuatsiya qilingan shifokorlar hisobiga xizmat sifati nisbatan saqlanib qolgan[6,4-b]. Respublikamizning qishloq hududlarida tibbiy muassasalarning dastlabki tashkil topishi haqida ma’lumotlar Tibbiyot xodimlari va kadrlar tanqisligi ham ko‘ndalang turgan muammolardan biri edi. Qishloq hududlarida malakali shifokorlar soni juda kam edi. Asosan feldsherlar va akusherlar faoliyat yuritgan. XXasrning boshlarida Turkiston uezdida akusherlar butunlay yo‘q qilingan. Oqmasjid va Mirzacho‘l uezdlarining faqat shahar hududlarida qolgan. Hisobotda ko‘ra, bu holat qishloq va posyolka aholisini malakali akusherlik yordamisiz qoldirib, ularni tajribasiz doyalarga topshirgan, deb baholanadi.

Farg‘ona viloyatida bor-yo‘g‘i 70 ta akusherlik-ginekologik o‘rin mavjud. 1923-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, shaharda atigi 15 ta, uezdlarda esa 5 ta akusher faoliyat yuritgan. 1924-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, shtat bo‘yicha 24 ta akusher belgilangan bo‘lib, shundan 12 tasi Qo‘qon shahrida ishlagan.

Samarqand viloyatida 1924-yil 1-yanvarga kelib uezdlarda 16 nafar , shtatlar bo‘yicha esa 26 nafar (Samarqand shahrida 8 nafar) akusher bor edi.

Yettisuy viloyatida 20 nafar shtatdagi akusher bo‘lib, ulardan 10 nafari Olmaota shahrida edi. Turkman viloyatida 11 ta (5 tasi Poltoratskda), Amudaryo viloyatida esa 2 ta (2 tasi Tortkulda) akusher bor edi.

Bu raqamlar akusherlik yordami yetarli darajada tashkil etilmaganini yaqqol ko‘rsatadi. Shu sababli 1924–1925 yillar uchun rejalashtirilgan perspektiv dasturda quyidagilar ko‘zda tutilgan: Har bir tibbiy punktda albatta akusher bo‘lishi kerak.Har bir uezd shahrida kamida 10 o‘rinli akusherlik-ginekologik bo‘lim bo‘lishi kerak.Bu kichik ko‘rinadigan talablar hozirgi holat bilan solishtirganda juda katta yutuq bo‘lib, tizimli yondashuv orqali ona va bolaning sog‘lig‘ini saqlash yo‘lida katta qadam hisoblanadi.

1930 yillardagi qishloq tibbiy muassasalari va hodimlar faoliyatiga haqidagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, tuman kasalxonalari, qishloq feldsher-akusher punktlari,qishloq ambulatoriyalari,sanitariya-epidemiologiya punktlari asta-asta ko‘payib borgan [3,14-b].Bu davrda har bir felsher-akusherlik punktlarida o‘rtacha 1 felsher va 1 akusher to‘g‘ri kelgan,dori-darmon bilan ta’minlash darajasi 35-40% tashkil etgan,har 100 ming qishloq aholisiga o‘rtacha 8ta tibbiy muassasa mavjud bo‘lgan..Bu ko ‘rsatgich shaharlarda 6-7 baravar yuqori edi .Qishloq hududlarida tibbiy xizmatni oshirish maqsadida davlat jiddiy choralar ko‘rdi.1930 yillarda respublika bo‘yicha feldsherlar tayyorlovchi texnikumlar ochildi [4,10-b]. Sanitar madaniyat va profilaktika ishlari rivojlandi Bularni tashkil etishdan maqsad qishloq hududlarida tibbiy xizmatni rivojlantirish va yetarlicha kadrlarni ta’minlash bo‘lgan. Urush yillari tibbiyot uchun sinov davri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. 1941–1945-yillarda O‘zbekistondan ko‘plab shifokorlar frontga yuborildi. Qishloqlardagi tibbiy xizmat og‘irlashdi. Shunga qaramay, evakuatsiya qilingan vrachlar hisobiga ayrim joylarda xizmat sifati saqlanib qolindi [5,5-7-b].

Muhokama.O‘zbekistondagi qishloq tibbiyotining rivojlanishi asosan sovet ijtimoiy siyosatining bir qismi sifatida qaraldi. Mavjud infratuzilmaning zaifligi, kadrlar yetishmovchiligi, dori-darmon ta’minotining sustligi bu sohaning jiddiy sanitariya gigiyenasi va epidemiyaga qarshi kurash choralari kuchaytirildi[7.68-b].

Qishloq aholisiga tibbiy yordamni yanada yaxshilash va shahar darajasiga yaqinlashtirish uchun ko‘p miqdorda ishlar amalga oshirildi. Hududiy va tuman ixtisoslashgan tibbiyot muassasalarining kengaytirilishi, zamonaviy tibbiy uskunalar va materiallar bilan ta’minlanishi, tibbiyot transporti va malakali kadrlar bilan ta’minlanishi yo‘lga qo‘yildi. [8,234-237-b].1940 yilda “Qishloq vrachlik uchastkasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi qarorga javoban Sog‘liqni saqlash tashkiloti keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirgan.Bu ishlar qishloq shifoxonalari tarmog‘ini kengaytirish va mustahkamlash,ularni vrachlar va o‘rta tibbiy kadrlar bilan ta’minlash hamda va texnik jixozlashga qaratilgan.Qishloqlarda ona va bola salomatligini muhofaza qilish hamda birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish masalalari bo‘lgan feldsher-akusherlik punktlari tarmog‘ini keskin darajada kengaydi. 1940 yilda ularning soni 1914 yilga nisbatan 88 barobarga oshdi.Qishloq aholi yashash joylariga yaqin bo ‘lgan birinchi kolxoz tug‘ruq uylari tashkil etildi,bu esa stasionar tug‘ruq yordamining bevosita tug‘uvchi yashaydigan hududlarga yaqilashtirish imkonini berdi [9,26-27-b].

O‘zbekiston SSR qishloqlarida 1924–1945-yillar oralig‘ida tibbiy muassasalar faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda sovet davlati sog‘liqni saqlashni strategik vazifa sifatida ko‘rgan. Qishloqlarda feldsher-akusherlik punktlari, kichik kasalxonalar va sanitar stansiyalar tashkil qilinib, aholiga asosiy tibbiy xizmatlar ko‘rsatila boshlandi[10.6-27-b]. Shunga qaramay, bu davr tibbiy xizmatlarning to‘liq va samarali yo‘lga qo‘yilgan davri bo‘la olmadi. Kadrlar tanqisligi, moddiy-texnik baza zaifligi, transport infratuzilmasining yomonligi qishloq joylarda aholining tibbiy xizmatga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirishga imkon bermas edi. Aholi orasida an’anaviy tabiblikka ishonch kuchli bo‘lib qolgan. Sovet tibbiyoti esa bu ishonchni sindirish uchun gigiyenik madaniyatni rivojlantirish, profilaktik tadbirlar o‘tkazish, mobil tibbiy brigadalarni jalb etish orqali asta-sekinlik bilan ijtimoiy ongda o‘z o‘rnini mustahkamlashga harakat qildi.

Ikkinchi jahon urushi yillari esa sog‘liqni saqlash tizimi uchun og‘ir sinov davri bo‘ldi. Shunga qaramay, ayrim statistik ma’lumotlarga ko‘ra, urush yillarida ham O‘zbekiston qishloqlarida mavjud bo‘lgan tibbiy muassasalar o‘z faoliyatini to‘xtatmagan, evakuatsiya qilingan vrachlar yordamida muayyan darajada xizmatlar davom ettirilgan.

1. Ushbu davr mobaynida tibbiy muassasalar soni keskin o‘smagan, lekin sifat jihatidan yildan-yilga barqaror o‘sish kuzatilgan;
2. Qishloq ayollari va bolalar salomatligi alohida e’tibor markazida bo‘lgan;
3. SSSR sog‘liqni saqlash siyosatining markazlashganligi O‘zbekiston qishloqlariga ham tibbiy xizmatni olib kirishda muhim rol o‘ynagan.
4. Urush yillari tibbiyot tizimi sinovdan o‘tgan bo‘lib, aynan shu davrda qishloqlarda gigiyena va profilaktika ishlariga e’tibor kuchaygan.

Xulosa. 1924–1945-yillar oralig‘ida O‘zbekiston qishloqlarida tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muhim qadamlar tashlangan. Bu davrda barpo etilgan muassasalar kelgusi sog‘liqni saqlash tizimining poydevorini tashkil etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qishloq tibbiyotining rivojlanishi sekin bo‘lsada, tizimli tarzda amalga oshirilgan. 1924–1945-yillarda O‘zbekiston qishloqlarida tibbiy muassasalar faoliyati bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Sovet hokimiyati tomonidan tibbiy xizmatlarning bepul bo‘lishi, kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktika ishlari va tibbiy savodxonlikni oshirish borasidagi sa’y-harakatlar natijasida aholining sog‘liqni saqlashga bo‘lgan munosabatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Shunga qaramay, tibbiy kadrlar yetishmovchiligi, transport va infratuzilmaning sustligi, an’anaviy shifobaxsh usullarga ortiqcha ishonch kabi muammolar mavjud bo‘lib qoldi. Qishloq tibbiyotining bu davrdagi holati keyingi yillarda tibbiy islohotlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy Arxivi (ЎзМА), R.2456-фонд, 1-ro‘yxat, 123-ish, 4-7-betlar.

2. Ziyayev M. O‘zbekistonda tibbiyot tarixi. – Toshkent: “Fan”, 1992. 112-bet.

3. O‘zbekiston Milliy Arxivi (ЎзМА), R.2456-фонд, 1-ro‘yxat, 103-ish, 14-betlar.

4. «Состояние медицинского обслуживания в сельской местности» // «Красный Узбекистан», 7 июня 1929 г.

5. Статистические отчёты Ташкентского областного отдела здравоохранения за 1930-1933 г. – Вып. 5.

6. «Война и медицина» // «Здоровье Узбекистана», 1943. № 4. – С. 6.

7. Rasulov A. Tibbiy profilaktika ishlari haqida. – Toshkent: “Sog‘liqni saqlash nashriyoti”, 1940. – Б. 58.

8. ErgashevM.History of the health system in the Uzbek SSR (1924-1974) //https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/4465/4366.

9. Сагатов Р. С. Развитие народного здравоохранения в Узбекистане. – Ташкент, 1958. – С. 26-27.

10. Каримов А. Здравоохранение Советского Узбекистана. – Ташкент: Объединенное издательств «Правда Востока» и «Кзыл-Узбекистон»,1947. – С.6-27.

11. Дембо Г.И. Санитарно-лечебное дело в Туркестанской республике и план его развития. – Ташкент, 1924. – С. 18-20.